

## QURILISH MATERIALLARIDA TAKLIFNING O'ZGARISH DINAMIKASI

**M.Siddiqov**

Iqtisodiyot va menejment kafedrasini dotsenti

**L.Safarov**

Kibersport fakulteti 532-22 guruhi talabasi

Ichki bozorda qurilish materiallarining taklifi oshib bormoqda, bu narxlar barqarorlashuviga va yangi uy-joylar narxi pasayishiga ta'sir ko'rsatmoqda, deb ta'kidladi Markaziy bank. Regulyator import qurilish materiallarida narx xavfini ko'rmayapti.


So'nggi yillarda qurilish sohasi, xususan, turar-joy qurilishi sezilarli darajada kengaydi, qayd etdi regulyator. Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan iste'mol kayfiyati bo'yicha so'rovlargacha ko'ra, respondentlarning 15–20 foizi uyini ta'mirlashga pul sarflagan yoki ta'mirlashni rejalashtirgan, yana 8 foizi esa xonodon sotib olish niyatida ekanini bildirgan.

2021–2023-yillarda aholi mablag'laridan turar-joy binolari qurilishiga 71,8 trillion so'm (6,4 milliard dollar) investitsiya kiritilgan bo'lib, bu ham ushbu sohada talab yuqoriligidan dalolat beradi. Bu, o'z navbatida, ichki bozorda taklifning oshishiga va qurilish sektorining rivojlanishiga olib keladi.


Yanvar-iyun oylarida 2 mingga yaqin qurilish korxonasi tashkil etilgan bo'lsa, birinchi yarim yil yakuniga ko'ra mamlakatda qurilish sohasida 30 mingdan ortiq subyekt faoliyat ko'rsatmoqda (bu barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning qariyb 7 foizini tashkil etadi). Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi barcha korxonalarning 7 foizi ushbu tarmoqqa to'g'ri keladi.

**1-расм. Алоҳида қурилиш моллари импорти ва ички ишлаб чиқариш улуши, %**

a. Портландцемент



b. Лак ва буёклар



Манба: Статагентлик маълумотлари асосида МБ ҳисоб-китоблари (портландцемент ТИФ ТН коди 2523, буёқ ва лаклар – 3208)

Yuqori faollik natijasida qurilish mollarining ichki taklif hajmi oshib, narxlarni barqarorlashuviga va birlamchi bozorda uy-joy narxlari o'sish sur'atlarining pasayishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, ayrim qurilish mollari tarkibida import qilinadigan komponentlar ustunlik qilmoqda. Gap, xususan, yog'och, qora metallar, bo'yoq va lak mahsulotlari haqida bormoqda. Oddiy turdagiligi qurilish mollari importida (portlansement) pasayish tendensiyasi davom etmoqda.

**2-расм. Қурилиш молларининг ички ва импорт нархлари динамикаси**

a. Тураг-жойларга хизмат кўрсатиш      б. Портландцемент, %, й/й


ва таъмирлаш товарлари

инфляцияси %, й/й



MB jadvallaridan ko‘rinib turibdiki, may oyida uy-joylarni saqlash va ta’mirlash uchun materiallar infliyatsiyasi yillik ko’rsatkichda 1 foizdan pastga tushdi. Yil davomida sementning import va ichki narxlari taxminan 15% ga kamaydi, import qilinadigan qora metallar (quvurlar, fittinglar) narxi pasayishda davom etmoqda. Joriy tendensiyalarni hisobga olgan holda, qurilish tovarlari uchun import kanali orqali narxlarga bosim kuzatilmaslik ehtimoliyuqor.

**в. Асосий қурилиш молларининг импорт нархлари ўзгариши, %, й/й**



*Манба: Статагентлик маълумотлари асосида МБ ҳисоб-китоблари*

Biz avvalroq regulyator aprel-iyun oylarida uy-joy bitimlari sonining qisqarishini “bozordagi vaziyatning barqarorlashuvi” bilan bog’layotganini yozgan edik. Markaziy bankning fikricha, uy-joy savdosi va ijarasni narxlarining o’sish sur’ati o’rtasidagi tafovutning oshishi sotib olish va sotish narxlarining pasayishiga olib kelishi mumkin.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Bozorboev N., Maxamataliyev E., Turdialiiev M. Qurilishni tashkil etish va rejalshtirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TAQI, 2011. – 105 b.
2. Roger Greeno. BUILDING CONSTRUCTION-HANDBOOK-chudley. –Paris: 2003.
3. Dikman L.G., Organuzatsuya stroutelnogo prouzvodstva / Uchebnik dlya stroitelneix vuzov / M: Izdatelstvo Assotsiatsii stroitelneix vuzov, 2006. 608 str.
4. Raximov B.X, Shomirzayev E.A, Gritsenko A.S . “Shahar qurilishi va xo‘jaligini tashkil qilish, rejalshtirish hamda boshqarish”. “Yangi asr avlod”, 2019.
5. M.Siddiqov. “Qurilishni tashkil etish va rejalshtirish” Darslik. Jizzax – 2021.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.